

SKIFLAR MADANIYATI VA ULARNING MAMLAKATIMIZ TARIXIDAGI AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7800172>

Mo'minov Mansur Jo'ra o'g'li

*O'zbekiston Milliy unerversiteti, Tarix fakulteti, tarix
yo'nalishi, 1-kurs talabasi.*

Annotatsiya.

Maqolada qadimiy ko'chmanchi qabila bo'lgan skiflarni mamlakatimiz hududidagi qadimiy davlatchilik shakllanishidagi o'rni. Yurtimiz etnologiyasidagi ahamiyati haqida atroflicha yoritishga harakat qildik. Ushbu maqolada skiflarning tarixiy joylashuvi, madaniyati, etnik xususiyatlari ayrim siyosiy voqealar haqida ham ma'lumotlar keltiramiz. Ushbu mavzu mamlakatimizda nisbatan kamroq o'rganilgan va ko'p hollarda jahon tarixi fani bilan bog'langan mavzu hisoblanadi. Lekin yunon muarrixlari asarlaridagi geografik atama va joy nomlaridan ko'rishimiz mumkinki, skiflar va ularning avlodlari bo'lgan xalqlar, elatlar, va qabilalar mamlakatimiz hududida ham yashaganlar.

Abstract.

The role of Scythians, an ancient nomadic tribe, in the formation of ancient statehood in our country is discussed in the article. We tried to cover the significance of the ethnology of our country in detail. This article also provides information about the historical location, culture, ethnic characteristics of the Scythians and some political events. This topic is relatively less studied in our country, and in many cases it is a topic connected with the science of world history. But we can see from the geographical terms and place names in the works of Greek historians that Scythians and their descendants, peoples, peoples, and tribes lived in the territory of our country.

Kalit so'zlar.

Amazonkalar, skif xalqlari, Yaksart, Tanais(Don), arimaspi, sak-massaget, Qora dengiz, mozor qo'rg'o'nlar.

Key words.

Amazons, Scythian peoples, Yaxart, Tanais (Don), Arimaspi, Sak-massaget, Black Sea, burial mounds.

Skiflar qadim qabilalardan bo'lib, hozir ular ko'plab xalqlar qonida, o'tmishiga daxldor hisoblanadi. Ular yashagan hududlar juda katta kengliklarga cho'zilgan edi. Ular hozirgi davrdagi Qozog'iston, Rossiya, Ukraina va boshqa mamlakatlar

hududida yashaganlar. Mamlakatimiz hududida skiflarga mansub bo'lgan ko'plab xalqlar istiqomat qilgan. Bularga saklar, massagetlarni misol keltirishimiz mumkin.

Aleksandr bosqini haqida yozilgan, Kvint Kursiy qalamiga mansub "Makedoniyalik Aleksandr tarixi" asarida Aleksandr Sirdaryodadan o'tib shimoldagi skiflarga yurish qilmoqchi bo'ladi. Bilamizki, Sirdaryodan shimolda saklar yashashar edi, bundan ko'rindiki, saklar ham skif nomi bilan atalgan. Demak, skiflarni jahon tarixiga oid deb qarash unchalik to'g'ri bo'lmaydi.

Davlatchiligidan skiflar mavzusiga to'xtaladigan bo'lsak, saklar va massagetlar ular avlodidan bevosita davomi bo'lganligi boisdan hozirgi O'zbekistonning shimoli-sharqida tashkil topgan Dovon va Qang' skiflar tomonidan asos solingan davlatlar deyish mumkin. Bu esa ularni davlatchiligidan ham ahamiyati yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi. Amudaryo sohillaridagi dashtlarga egalik qilgan massagetlar esa o'z navbatida Xorazm hududidagi davlatchilikda ishtirok etadi. Skiflarni qabila sifatida emas, qabilalar ittifoqi sifatida qaralsa ancha maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, ular bitta qabila emas, ko'plab qabilalardan iborat bo'lgan. Ular hududi g'arbdan sharqqa qarab cho'zilgan bo'lib, G'arbda hatto Dunaygacha, Sharqda Xitoygacha cho'zilgan ulkan hududlarni egallagan edi. Bular yunon manbalarida umumiy skiflar nomi ostida berilgan bo'lsada, turli hududlarda turli qabilalar tashkil topgan va turli nomlar bilan atalgan. Arimasplar, saklar va massagetlar skiflardan ajralib chiqishadi. saklar va massagetlar O'rta Osiyoda yashaganlar. Arimasplar esa ancha mifologik talqin qilinadi ularni bir ko'zli odamlar sifatida ba'zan ularga qarshi kurashuvchi deya tarif beriladi. Ular haqida Gerodot va bir qancha qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida ham uchraydi. Gerodotning so'zlariga ko'ra, ular bir ko'zli (Arimasp so'zi skif tilidan shunday tarjima qilingan) va grifonlar bilan kurashgan. Bir qator tadqiqotchilar arimaspiylar bronza davrida Janubiy Sibirda yashagan ko'chmanchi skif xalqi ekanligini ta'kidlaydilar. Chex sharqshunosi Vilgelm Tomaschek arimasplarni turkiylarning ajdodi deb hisoblaydi.

Skif madaniyati haqida yozma manbalar kamroq asosan, yunon olimlari asarlarida uchraydi. Ular ko'chmanchi hayot tarzida yashaganlar. Shu tufayli ular haqida arxeologik manbalar ko'plab ma'lumotlar beradi. Asosiy arxeologik yodgorliklar mozor-qo'rg'onlardan iborat. Bir-biriga yaqin hududda yashagan qabila va xalqlarning madaniyati ham umumiy jihatlarga ega bo'ladi. Ko'chmanchi hayot tarzi tufayli ularning dastlabki, yodgorliklari mozor-qo'rg'onlardir. Hayot tarzining oddiyligi, doimiy turar joylarni yo'qligi tufayli dastlab, arxeologik yodgorliklar shaharlar emas, mozor-qo'rg'onlar bo'lgan.

Sak va skiflar yaratgan madaniyat bir-biriga o'xshash bo'lsada, skiflar madaniyatida yunonlarning ta'siri seziladi. Bunga sabab yunonlar bilan qo'shni hududda yashaganligi, o'zaro savdo aloqalarining mavjudligi edi.

Chertomlik mozor-qo'rg'onidan topilgan kamon g'ilofida yunon xudosi axilning hayotidan lavhalar aks etganligi, g'arbiy skiflar hayotiga yunon mifologiyasi va yunon xudolari ham kirib borganligi, skiflarga ular yaxshi tanish ekanligini bilishimiz mumkin. shu hududdan ya'ni Chertomlik mozor qo'rg'onidan topilgan vaza esa yunon uslubida yasalganligi skiflar hunarmandchiligidagi yunonlar ta'sirining kattaligidan yoki o'zaro savdo juda yaxshi ekanligidan dalolat beradi.

Yunon va skif madaniyatining o'xshashligi borasida gap ketganda bu yunon koloniyalashtirish davri bilan bog'liq. Skif yerlari Shimoliy Qora dengiz bo'y lab Sharqqa cho'zilgan edi. Shu barobarida Shimoliy Qora dengiz sohillarida ko'plab yunon koloniyalari bo'lган. Ular esa o'z navbatida Yunoniston bilan uzviy aloqada bo'lган. Shu orqali yunon madaniyatining o'ziga xosliklari skiflarga ham o'tgan.

Yuqorida ta'kidlab, o'tkanimizdek skiflar juda katta hududlarni egallagan bo'lganligi uchun, yunon koloniyalashtirish davrida asos solingan Olviya, Pantekapey va boshqa ko'plab Qora dengiz bo'yidagi yunon koloniyalari bilan qo'shni hududda yashagan. Aynan shu omil yunon madaniyatining G'arbiy skiflar madaniyatida chuqur o'rashishiga sabab bo'ladi. Yunon koloniyalari bilab yaqin aloqa tufayli, markaziy yunonistonga juda ko'p skiflar haqida asotirlar va afsonalar yetib boradi va yunon mifologiyasida muhim o'rinni egallaydi. Mashhur yunon tarixchisi Gerodot o'z asarida skiflar haqida ko'plab ma'lumotlar berib o'tgan va o'sha davrda mashhur bo'lgan ko'plab afsonaviy hikoyalarni ham keltirgan. Bir muhim jihat yunon afsonalari ham skiflar bilan bevosita bog'langan. Misol uchun asarning bir joyida skiflarni ota tomondan zevsga bog'lanishi yoki Skif ismli Gerakning o'g'li bo'lganligi shundan skif xalqi paydo bo'lgan degan ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Bular ancha haqiqatdan yiroq fikrlar bo'lsada, yunonlar skiflarni juda yaxshi bilishlari va yaqindan tanish bo'lganligini isbotlaydi. Chunki, ularni o'z asarlarida skiflar obrazini juda ko'p ishlatishgan va bu ko'p hollarda g'arbiy skiflar bo'lgan.

Yunon mifologiyasida skiflar alohida o'rinni tutganligini muarrix adib Yustinning fikri ham isbotlaydi. U quyidagicha tarif beradi "Amazonkalar skif avlodlari bo'lgan ekan". Bu o'xshatishga sabab afsonalardagi Amazonkalar hududi bilan skiflar umumiyyatida yashaganligi bo'lishi mumkin.

Amazonkalar o'zi yunon afsonalaridagi jangchi ayollar. Rivoyatlarga ko'ra Kichik Osiyoda va Azov dengizi qirg'oqlarida yashagan. Kamon tortganda halaqit bermasligi uchun qizlarning o'ng ko'kraklarini kuydirishgan (Amazonka so'zi "ko'kraksizlar" degan ma'noni beradi). Amazonkalar tasvirlarda latofatli ayollar sifatida berilgan. Ular haqidagi afsonalar ko'p xalqlar orasida tarqalgan bo'lib, matrixat davrini aks ettiradi. Amazonkalar zo'r chavandoz ayollar bo'lgan ekan. Buyuk Aleksandr ham ular bilan jang qilmoqchi bo'lgani lekin fikridan qaytganligi aytiladi. Bunga sabab ular ayollar ekanligi va ulardan yengilsa qo'shin ruhiy tushkunlikka tushishi mumkin ekanligi aytiladi.

Skiflarda xalq qo'shiqlari ham mavjud bo'lgan. Aytishicha, Aleksandr ularni asir olganda ular xalq qo'shiqlarini kuylab, o'limga tik boqishadi. Aleksandr ularni mardligiga qoyil qolib qo'yib yuboradi deyiladi. Bundan ko'rindaniki, skiflarda xalq og'zaki ijodi ham mavjud bo'lgan va yunonlarni o'ziga qiziqtira olgan.

Aleksandr davrida kelgan yunon olimlar Arrestotel va boshqalar O'rta Osiyodagi skiflar odatlari, madaniyati haqida kitoblar yozmoqchi bo'lganlar. Arrestotel esa skiflar odatlari haqida asar yozganligi lekin Aleksandr undan jahli chiqib yoqib yuborgani aytiladi.

Ular madaniyati borasida arxeologik manbalar dalolat berishicha, skiflar madaniyati miloddan avvalgi VII asrdan boshlab shakllana boshlagan. Miloddan avvalgi V asrdan mustahkamlangan manzilgohlari paydo bo'lgan. U Quyi Dnepr bo'yidagi Nikopol yonida joylashgan. Miloddan avvalgi IV-III asrlarga kelib, skiflarning bir qancha shaharlari paydo bo'lgan Kamensk, Elizavetovskiy va boshqalar shular jumlasidandir. Bu kabi ma'lumotlar asosan, G'arbiy skiflarga tegishli.

Skiflar tasvirida ular uchi qayilgan qalpog'da ba'zan qalpog'siz bo'lib, sochi yelkaga tushib turgan holda tasvirlangan. Oyoq kiyimlari kalta ko'njli bo'lib, oyoqning to'pig'idan boylab, qo'yilgan. Keng shalvar ishton kiyganlar, bular ko'chmanchi hayot tarziga mos bo'lgan.

Ular yashagan hududlar janub ko'chmanchilariga qaraganda ancha salqin bo'lgan. Shu sababli nisbatan qalinroq kiyimlar bo'lgan. Buni oyoq kiyimlarida ko'rishimiz mumkin.

Asosan, skiflar hayoti boshqa ko'plab dasht ko'chmanchilari kabi ko'chmanchi chorvachilik bilan bo'g'liq bo'lgan. Ular bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurib mayda va yirik mol boqqanlar. Bu ularning asosiy daromad manbai bo'lib xizmat qilgan.

Ular xotin va bolalarini yomg'ir va qordan saqlash uchun oilasini terilar bilan o'rالgan aravalarda olib yurishgan. Bu ularning hayoti uchun juda qulay ya'ni tez ko'chib yurishni ta'minlagan. Ulardan keyingi ko'chmanchi xalqlar hayotida ham uylar ixcham bir joydan, ikkinchisiga, ko'chib o'tish uchun juda qulay bo'lган.

Skiflarda yana bir qiziq odat bo'lган: skif podshosi qayerda vafot etsa ham uni Dnepr daryosing ostonalaridan pastroqdag'i Gerri degan joyga olib borib dafn etishgan. Bu hudud hozirgi davrda Ukraina hududiga to'g'ri keladi. Qabrlar o'sha davrning o'zidayoq o'marib ketilgan. Bunga sabab, qimmatbaho narsalar ham qo'shib ko'milganligi edi. Yana Geradotning yozishicha qabrga podsho bilan birga ayollar, jangchilari, qu'llari, otboqarlari, otlari o'ldirib birga ko'milgan. Bu kabi odatlar boshqa qadimgi xalqlarda ham ko'rishimiz mumkin.

Skiflarda qilichga sig'inish odati ham bo'lган. Bug'u esa muqaddas hisoblangan. O'sha davr va undan keyingi davrlarda ham ko'chmanchilar orasida hayvonlarni ilohiylashtirish odati saqlanib qoladi.

Ko'plab yunon tarixchilari o'z asarlarida skiflar va O'rta Osiyo xalqlari haqida ko'plab, afsonalar, tarixiy voqealar keltirganini ko'ramiz. Kvint Kursiy Ruf o'zining "Makedoniyalik Aleksandr tarxi" asarida O'rta Osiyoda yashovchi barcha xalqlarni umumiy skif nomi ostida keltiradi. Bundan ko'rindiki, O'rta Osiyo xalqlarining asosi skif qabilalari bo'lган, huddi hozir turkiylar deganimizdik. Kvint Kursiy Rufning ta'kidlashicha, "skiflarning boshqa varvar urug'laridan farqi shunda ediki, ularning fikr ifodalashlari qo'pol emas, madaniyati ham durust edi". Bu tariflardan bilish mumkinki, demak ular ko'chmanchi hayot tarziga yaqin bo'lsada, ancha madaniy yuksalish darajasiga yetganlar. Rufning yana aytishicha, "Ularni orasida donishmandlari ham bor ekan".

Kvint Kursiy Rufning asarida keltirilishicha, yigirmaga yaqin otliq skif o'z milliy kiyimlarida Aleksandr yoniga kelib, uning chodiriga kirishadi. Aleksandrga ruhiy bosim o'tkazishadi. "Nega bizning yurtimizga oyoq boshding, sen kimsan, qayerdan kelding" kabi savollar bilan unga murojaat etishadi. Bu holat ularni yuksak ma'naviyat sohibi bo'lganligini, o'sha davrda ham buyuk idrok egalari ekanligidan dalolat beradi. So'zlari davomida "Ho'kiz va omoch bilan yer haydab, hosil olamiz, yoyda uzoqdagi dushmani qiramiz, qilichda yaqindagisini. Biz shunday qilib, Suriya, keyin esa Eron va Indey shohlarini yengib kelganmiz". Ta'riflardan ma'lum bo'ladi, birinchidan: skif oqsoqollari dono ekanligini, ikkinchidan: ular ulkan davlatlar Suriya hududini, Eron kabi davlatlarni yenganligi hatto, Indey shohlarini ham bo'ysindirgani ko'rishimiz mumkin. Demak, ko'chmanchi skiflar juda ulkan kuchga ega bo'lganlar.

Skiflar oltin va kumushga qiziqishmagan. Bu sabab balki, ushbu ma'danlarning juda ko'pligi yoki savdo minosabatlarining rivojlanmaganligi bo'lishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin. Skiflar mamlakatimiz tarixida o'rnini shu bilan belgilanadiki, skiflar va ularni bevosita davomi bo'lgan xalqlar mamlakatimiz davlatchiligini yuksaltirishda va davlatchiligmizni yaratishda xizmat qilishadi. Mamlakatimizda qadimgi davr va o'rta asrlardagi etnik jarayonlarda skiflar faol ishtirok etganligini ko'rishimiz mumkin. Keyinchalik, esa yagona turkiy lingvistik muhit vujudga keldi. Mamlakatimiz antropologiyasi va etnologiyasida esa skiflarga xos alomatlar saqlanib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F. Boynazarov "Qadimgi dunyo tarixi" Toshkent. 2008.
2. N. A. Egamberdieva "Arxeologiya" o'quv qo'llanma. Toshkent. 2011.
3. З.Аълам "Кадимги тарихчилар Урта Осиё хакида" Тошкент. 2008.
4. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 1- jild. Toshkent. 2000-2006.
5. Wikipedia.